



**ETNONIMLAR ISHTIROK ETGAN IDIOMALARNING LINGVOKOGNITIV
TAHLILI**

<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.040>

Muxitdinov Dilshod Toxirovich

O‘qituvchi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya Bu maqolada millat nomlari (etnonimlar) ishtirok etgan idiomalarning lingvokognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda idiomalar til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatning mahsuli sifatida qaralib, ularning shakllanishida konseptual metafora, metonimiya, stereotip va baholovchi (aksiologik) komponentlarning roli ochib beriladi. Millat nomlari bilan bog‘liq idiomalarning semantik, kognitiv va madaniy jihatlari Ingliz tili materiallari asosida yoritiladi hamda zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan ularning qayta baholanishi masalasi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kognitiv tilshunoslik, idiomalar, kognitiv obraz, etnonimlar, konseptual metafora, kognitiv metonimiya, stereotip, baholovchi ma‘no.

Kirish

Hozirgi tilshunoslikda til birliklarini inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yangi paydo bo‘lgan yo‘nalishlar va fanlar jumladan kognitiv tilshunoslik yo‘nalishi tilni bilimni tashkil etish, qayta ishlash va uzatish vositasi sifatida talqin qilib, til hodisalarini inson ongida shakllanuvchi konseptual tuzilmalar bilan bog‘liq holda izohlaydi. Shu nuqtayi nazardan, idiomalar tilning oddiy nominativ birliklari emas, balki xalqning madaniy qadriyatlari, tarixiy xotirasi, va kollektiv tafakkurini o‘zida aks ettirgan murakkab kognitiv birliklar sifatida qaraladi.

Etnonimlar ishtirok etgan idiomalar lingvistlarda va ayniqsa kognitiv lingvistikada alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi, buning sababi ular muayyan xalq yoki millat haqidagi umumlashgan tasavvurlar, stereotiplar va baholash mezonlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bunday idiomalar tarkibidagi etnonimlar bevosita real millat vakillarini emas, balki tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajriba asosida shakllangan kognitiv obrazni ifodalaydi. Natijada, millat nomi semantik jihatdan qayta talqin qilinib, muayyan xususiyat, holat yoki munosabatni ifodalovchi konseptual belgiga aylanadi.

Millat nomlari qatnashgan idiomalar ko‘p hollarda baholovchi xarakterga ega bo‘lib, ular orqali “o‘zimiz” va “boshqalar” qarama-qarshiligi, ijobiy yoki salbiy munosabatlar hamda

madaniy ustuvorliklar namoyon bo‘ladi. Bu holat idiomalarni nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham o‘rganishni talab qiladi. Asosan hozirgi globallashuv sharoitida bunday birliklarning mazmuni va qo‘llanishi qayta baholanayotgani ularni kognitiv yondashuv asosida tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi millat nomlari ishtirok etgan idiomalarning shakllanishida ishtirok etuvchi asosiy kognitiv mexanizmlarni aniqlash, xususan, konseptual metafora va metonimiya, stereotiplashtirish hamda aksiologik baholash jarayonlarining rolini ochib berishdan iborat. Shuningdek, maqolada ushbu idiomalarning semantik xususiyatlari tahlil qilinib, ularning til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi vosita sifatidagi ahamiyati yoritiladi.

Asosiy qism

Kognitiv tilshunoslikda millat nomlari muayyan konseptual belgilarni faollashtiruvchi lingvokognitiv vosita sifatida talqin qilinadi. G. Lakoff va M. Johnson til birliklari insonning dunyoni konseptual idrok etish usulini aks ettirishini qayd etib, “**til bizning fikrlash tarzimizni shakllantiradi va uni tashqi ko‘rinishda namoyon etadi**” deb qayd etadilar (Lakoff, Johnson, 1980). Shu ma’noda, idiomalar, xususan, millat nomlari ishtirok etgan idiomalar inson ongida mavjud bo‘lgan konseptual tuzilmalarni faollashtiruvchi vosita hisoblanadi.

Idiomalar tarkibida qo‘llanadigan millat nomlari real millat vakillarining obyektiv xususiyatlarini emas, balki tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajriba asosida shakllangan umumlashgan kognitiv obrazni ifodalaydi. V.N. Teliya frazeologik birliklarni “**xalqning madaniy xotirasi va baholovchi tafakkurini o‘zida mujassamlashtirgan lingvomadaniy belgilar**” sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, frazeologizmlar orqali jamiyatda mavjud bo‘lgan stereotiplar va qadriyatlar mustahkamlanadi (Teliya, 1996).

Millat nomlari ishtirok etgan idiomalarda etnonimlar muayyan konseptlarni faollashtiruvchi semantik markaz vazifasini bajaradi. Z. Kövecses bunday holatni madaniyat va metafora o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik bilan izohlab, “**metaforalar va stereotiplar muayyan madaniyat tajribasining mahsuli bo‘lib, ular til orqali barqarorlashadi**” deb ta’kidlaydi (Kövecses, 2005). Natijada, millat nomi muayyan xususiyat yoki baholovchi munosabatni ifodalovchi kognitiv belgi sifatida shakllanadi.

Masalan, ingliz tilidagi *Dutch courage* iborasida *Dutch* so‘zi “ichkilik ta’sirida yuzaga keladigan soxta jasorat” konseptini faollashtiradi. Mazkur ibora salbiy stereotip asosida shakllangan bo‘lib, ingliz va golland xalqlari o‘rtasidagi tarixiy raqobat bilan bog‘liq. A. Wierzbicka ta’kidlaganidek, “**til birliklaridagi baholovchi komponentlar xalqning tarixiy tajribasi va madaniy munosabatlarini aks ettiradi**”. Ushbu idiomada ham millat nomi real etnik guruhni emas, balki baholovchi kognitiv obrazni ifodalaydi.

Bu jarayonni quyidagi kognitiv model asosida izohlash mumkin:

Etonim → stereotiplangan xususiyat → baholovchi ma’no → idiomatik birlik

Yuqoridagi model shuni ko‘rsatadiki, idioma tarkibidagi millat nomi nominativ vazifadan chiqib, konseptual va aksiologik funksiyani bajaradi. V.A. Maslova qayd etganidek, “**kognitiv**

tilshunoslikda til birliklari inson ongidagi konseptual tizimning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi”. Shunday ekan, millat nomlari ishtirok etgan idiomalar milliy ong, madaniy xotira va baholovchi tafakkur bilan bog‘liq murakkab kognitiv mexanizmlarning yorqin ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Konseptual metafora va metonimiyaning roli

Millat nomlari ishtirok etgan idiomalarning shakllanishida konseptual metafora va metonimiya muhim kognitiv mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi. Kognitiv tilshunoslikda ushbu hodisalar faqat stilistik vosita sifatida emas, balki inson tafakkurining asosiy ishlash mexanizmlari sifatida talqin qilinadi. G. Lakoff va M. Johnson metafora va metonimiyaning “insonning abstrakt tushunchalarni idrok etish va tartibga solish vositasi” sifatida baholab, ularning kundalik tafakkurda markaziy o‘rin tutishini ta’kidlaydilar. Shu sababli, millat nomlari qatnashgan idiomalar ham aynan ushbu kognitiv mexanizmlar orqali yuzaga keladi.

Millat nomlari bilan bog‘liq idiomalarda metafora va metonimiya ko‘pincha o‘zaro uzviy aloqada bo‘lib, stereotiplashtirilgan madaniy bilimlarni til orqali ifodalashga xizmat qiladi. Z. Kövecses qayd etganidek, “metaforalar va metonimiyalar madaniyatga xos tajribaning til tizimida barqarorlashgan shaklidir”. Demak, etnonimlar asosida shakllangan idiomalar muayyan xalq haqidagi madaniy tasavvurlarni kognitiv jihatdan kodlaydi.

Metonimik mexanizm

Metonimiya mexanizmi orqali millat nomi shu millatga nisbatan mavjud deb hisoblangan xususiyat, xulq-atvor yoki ijtimoiy stereotip bilan almashtiriladi. Kognitiv nuqtayi nazardan, bu jarayon “qism–butun”, “sabab–natija” yoki “belgi–obyekt” munosabatlariga asoslanadi. R. Langacker metonimiyaning “bir konseptual domen doirasida bitta element orqali boshqasini faollashtirish” deb ta’riflaydi.

Masalan, ingliz tilidagi *to take French leave* iborasi “ruxsatsiz, xayrlashmasdan ketib qolmoq” ma’nosini anglatadi. Ushbu idiomada *French* etnonimi fransuz xalqiga nisbatan tarixiy davrlarda shakllangan “odob qoidalariga beparvolik” stereotipi bilan bog‘lanadi. Bu yerda millat nomi butun xalqni emas, balki kollektiv ongda mustahkamlangan muayyan xulq-atvor modelini ifodalaydi. V.N. Teliya ta’kidlaganidek, “frazologik birliklar stereotiplashtirilgan baholovchi ma’noni ixcham shaklda uzatish xususiyatiga ega”. Mazkur idioma ham aynan shu funksiyani bajaradi.

Metonimik mexanizm natijasida etnonim o‘zining nominativ vazifasidan chiqib, baholovchi kognitiv belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa idiomaning semantik tuzilmasida millat nomining markaziy rolini belgilaydi.

Metaforik mexanizm

Metafora mexanizmi millat yoki madaniyat bilan bog‘liq aniq va konkret obraz orqali mavhum tushunchani ifodalashga asoslanadi. G. Lakoff metaforani “bitta konseptual domenni ikkinchisi orqali tushunish” jarayoni sifatida izohlaydi. Millat nomlari ishtirok etgan idiomalarda esa bu jarayon ko‘pincha madaniy ramzlar orqali amalga oshiriladi.

Masalan, *Chinese wall* iborasi “yengib bo‘lmas to‘siq” ma’nosini ifodalaydi. Ushbu idioma Buyuk Xitoy devori obrazi asosida shakllangan bo‘lib, u orqali “mustahkamlik”, “yopiq makon” va “ajratilganlik” konseptlari metaforik tarzda faollashtiriladi. Z. Kövecses fikricha, bunday metaforalar “madaniyatga xos muhim obyektlar va tajribalar asosida yuzaga keladi”. Xitoy devori ham jahon madaniyatida ramziy ahamiyatga ega bo‘lgan obyekt sifatida abstrakt tushunchani ifodalash uchun qulay metaforik manba hisoblanadi.

Metaforik mexanizm orqali millat nomi aniq tarixiy va madaniy obraz bilan bog‘lanib, idiomaga yuqori darajadagi ekspressivlik va konseptual chuqurlik baxsh etadi. Natijada, bunday idiomalar til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yaqqol namoyon etadi.

Metafora va metonimiyaning o‘zaro uyg‘unligi

Kognitiv tahlil shuni ko‘rsatadiki, millat nomlari ishtirok etgan idiomalarda metafora va metonimiya ko‘pincha bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi. A. Barcelona ta’kidlaganidek, “metafora va metonimiya o‘rtasida qat’iy chegara mavjud emas, ular ko‘pincha bitta konseptual tizim doirasida o‘zaro uyg‘unlashadi”. Shu bois, etnonimlar asosida shakllangan idiomalar murakkab kognitiv tuzilishga ega bo‘lib, ular orqali madaniy stereotiplar, baholovchi munosabatlar va konseptual modellar til tizimida barqarorlashadi.

Idiomalarning baholovchi (aksiologik) xususiyati

Millat nomlari qatnashgan idiomalar aksariyat hollarda yaqqol ifodalangan baholovchi, ya’ni aksiologik xarakterga ega bo‘ladi. Kognitiv tilshunoslikda baholash inson tafakkurining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi, chunki har qanday konsept inson tomonidan ijobiy yoki salbiy munosabat asosida idrok etiladi. N.D. Arutyunova ta’kidlaganidek, “baholash til birliklarining semantik tuzilmasiga chuqur singib ketgan bo‘lib, u insonning dunyoga munosabatini aks ettiradi”. Shu sababli, millat nomlari ishtirok etgan idiomalar ham muayyan xalq yoki madaniyatga nisbatan shakllangan baholovchi tasavvurlarni ifodalaydi.

Mazkur idiomalardagi baho ijobiy, salbiy yoki nisbatan neytral bo‘lishi mumkin, biroq amaliy tahlil shuni ko‘rsatadiki, salbiy bahoga ega birliklar miqdor jihatdan ustunlik qiladi. Bu holat kognitiv jihatdan “o‘zimiz – begona” oppozitsiyasi bilan izohlanadi. Ya’ni, til egasi bo‘lgan jamoa o‘ziga yaqin bo‘lgan madaniy qadriyatlarini ijobiy, “begona” deb baholangan madaniyat elementlarini esa salbiy tarzda konseptualizatsiya qiladi. Ushbu qarash G. Hofstede va E. Sapirlarning madaniyatlararo farqlar haqidagi fikrlari bilan hamohang bo‘lib, ular til va madaniyat o‘rtasidagi baholovchi tafakkur aloqasini alohida ta’kidlaydilar.

Masalan, *Gypsy life* iborasi “tartibsiz, beqaror hayot tarzini” ifodalaydi va salbiy aksiologik bahoga ega. Bu idiomada *Gypsy* etnonimi ko‘chmanchilik, ijtimoiy barqarorlikning yo‘qligi kabi stereotiplar bilan bog‘lanib, millat nomi salbiy kognitiv obrazni faollashtiradi. V.N. Teliya fikricha, “frazologik birliklarda baholovchi komponent yashirin yoki ochiq holda ifodalanadi va u madaniy stereotiplarga tayanadi”. Ushbu holatda ham baholovchi ma’no stereotiplashtirilgan tasavvur asosida yuzaga kelgan.

Bunga qarama-qarshi ravishda, *Swiss precision* iborasi ijobiy aksiologik bahoni ifodalaydi. Ushbu idioma shveysariyaliklarga nisbatan shakllangan aniqlik, tartiblilik va

puxtalik haqidagi madaniy tasavvurlarni konseptual darajada aks ettiradi. Z. Kövecses ta’kidlaganidek, ijobiy baholovchi metaforalar ko‘pincha jamiyat tomonidan ideal deb hisoblangan qadriyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois, mazkur iborada millat nomi ijobiy stereotip bilan bog‘lanib, yuqori darajadagi baholovchi ma’noni yuzaga keltiradi.

Nisbatan neytral bahoga ega bo‘lgan *Roman holiday* iborasi esa hashamatli, zavqli hordiqni anglatadi. Bu yerda *Roman* etnonimi qadimgi Rim madaniyati bilan bog‘liq hashamat, tantana va tomosha konseptlarini faollashtiradi. Biroq mazkur idioma ayrim kontekstlarda istehzoli yoki salbiy tus ham olishi mumkin. Bu holat baholashning kontekstga bog‘liqligini ko‘rsatadi. A. Wierzbicka ta’kidlaganidek, “baholovchi ma’no ko‘pincha universal emas, balki madaniy va kontekstual omillar bilan belgilanadi”.

Umuman olganda, millat nomlari ishtirok etgan idiomalardagi baholovchi komponentlar milliy ongda mustahkamlangan aksiologik mezonlarni, ijtimoiy munosabatlarni va madaniy ustuvorliklarni aks ettiradi. Kognitiv tahlil esa bunday idiomalarni nafaqat til birliklari, balki jamiyatning baholovchi tafakkuri va madaniy xotirasining lingvistik ifodasi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Zamonaviy kognitiv qayta baholash masalasi

Globalashuv jarayonlari, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi hamda ijtimoiy tenglik va bag‘rikenglik g‘oyalarining ustuvor ahamiyat kasb etishi natijasida millat nomlari ishtirok etgan ayrim idiomalar zamonaviy til amaliyotida diskriminativ yoki nojo‘ya birliklar sifatida qayta baholanmoqda. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu holat inson ongida ilgari barqaror bo‘lgan konseptual freymlarning yangi ijtimoiy-madaniy qadriyatlar bilan mos kelmay qolishi bilan izohlanadi. Z. Kövecses ta’kidlaganidek, “konseptual tizimlar statik emas, balki jamiyatdagi o‘zgarishlarga mos ravishda doimiy ravishda qayta shakllanib boradi”.

Millat nomlari asosida shakllangan idiomalar ko‘pincha tarixiy davrlarda mavjud bo‘lgan stereotiplar va baholovchi tasavvurlarga tayanadi. Biroq bugungi globalashgan jamiyatda bunday stereotiplar ijtimoiy jihatdan qabul qilinmasligi mumkin. N. Fairclough diskurs va hokimiyat munosabatlarini tahlil qilar ekan, til birliklari orqali ijtimoiy tengsizlik va ustuvorlik munosabatlari mustahkamlanishini ta’kidlaydi. Shu sababli, millat nomlari ishtirok etgan ayrim idiomalar zamonaviy diskursda tanqidiy qayta ko‘rib chiqilmoqda.

Kognitiv jihatdan bu jarayon rekonseptsiyalash deb ataladi, ya’ni mavjud konseptual modelning yangilanishi yoki uning o‘rnini yangi model bilan almashtirilishi. A. Wierzbicka fikricha, “til birliklarining baholovchi ma’nosi universal emas, balki muayyan madaniy va axloqiy me’yorlar bilan belgilanadi”. Demak, ijtimoiy me’yorlar o‘zgargan sari, idiomalarning kognitiv mazmuni ham qayta baholanadi.

Natijada, ayrim millat nomlari ishtirok etgan idiomalar faol nutqdan asta-sekin siqib chiqarilmoqda yoki ularning o‘rniga neytral va inklyuziv variantlar qo‘llanilmoqda. Masalan, ayrim ingliz tilidagi etnonim asosidagi frazeologizmlar zamonaviy lug‘atlarda “eskirgan” yoki “nojo‘ya” belgisi bilan qayd etilmoqda. Bu jarayon til tizimining o‘zgaruvchanligi va moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari, ta’lim tizimi va rasmiy diskursda til birliklariga nisbatan ongli yondashuvning kuchayishi ham kognitiv qayta baholash jarayonini tezlashtirmoqda. G. Lakoff til va ijtimoiy ong o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’kidlab, “konseptual freymlar jamiyat tomonidan qayta tashkil etilsa, til ham o‘zgaradi” degan fikrni ilgari suradi. Shu bois, millat nomlari ishtirok etgan idiomalar zamonaviy jamiyatda yangi konseptual talablarga mos holda qayta talqin qilinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy kognitiv qayta baholash jarayoni millat nomlari ishtirok etgan idiomalarni tarixiy-madaniy meros sifatida saqlagan holda, ularning ijtimoiy va aksiologik mosligini qayta ko‘rib chiqishga qaratilgan. Ushbu holat til va tafakkurning dinamik, jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuvchan tizim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa

Millat nomlari ishtirok etgan idiomalar tilning nafaqat leksik-semantik, balki kognitiv va madaniy qatlamlarini ham aks ettiruvchi murakkab lingvistik birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular til tizimida bir vaqtning o‘zida bir necha funksiyani bajaradi:

a) Milliy stereotiplarning lingvistik ifodasi:

Millat nomlari asosida shakllangan idiomalar ko‘pincha muayyan xalq yoki madaniyat haqidagi stereotiplarni kodlaydi. V.N. Teliya ta’kidlaganidek, “frazologik birliklar jamiyatning aksiologik qadriyatlarini va stereotiplarini ixcham shaklda uzatish vositasidir” (Teliya, 1996). Shu bilan birga, G. Lakoff va M. Johnson fikricha, stereotiplashtirilgan konseptual freymlar inson tafakkurida barqaror strukturani tashkil qiladi, va idiomalar bu freymlarning lingvistik ko‘rinishidir (Lakoff, Johnson, 1980).

b) Konseptual metafora va metonimiya asosida shakllanish:

Millat nomlari ishtirokidagi idiomalar konseptual metafora va metonimiyaning kombinatsiyasi orqali yuzaga keladi. Z. Kövecses bu jarayonni “madaniy tajriba va tarixiy kontekst orqali yuzaga kelgan kognitiv tuzilmalarni til orqali kodlash” deb talqin qiladi (Kövecses, 2005). Shu bois, idiomalar nafaqat til vositasi, balki madaniy obrazlarni faollashtiruvchi kognitiv mexanizm sifatida ishlaydi.

c) Baholovchi va madaniy yuklamaga ega bo‘lishi:

Millat nomlari qatnashgan idiomalar ijobiy, salbiy yoki neytral baholovchi ma’noni uzatadi. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu aksariyat hollarda “o‘zimiz–begona” oppozitsiyasi orqali shakllanadi. Masalan, *Gypsy life* idiomasi salbiy, *Swiss precision* esa ijobiy baho bilan bog‘liq. V.A. Maslova ta’kidlaganidek, baholovchi komponent til orqali jamiyatning aksiologik va madaniy mezonlarini mustahkamlashga xizmat qiladi (Maslova, 2001).

Bundan tashqari, zamonaviy globallashtirish kontekstida ba’zi idiomalar diskriminativ yoki nojo‘ya deb baholanib, kognitiv qayta baholash jarayoniga uchramoqda. A. Wierzbicka va N. Fairclough fikricha, til va tafakkur doimiy dinamikada bo‘lib, ijtimoiy qadriyatlar o‘zgarishi bilan eski stereotiplar va frazeologik freymlar qayta talqin qilinadi (Wierzbicka, 1996; Fairclough, 2001).

Umuman olganda, millat nomlari ishtirok etgan idiomalar tilning kognitiv-madaniy mexanizmlarini ochib beruvchi muhim vosita sifatida qaraladi. Kognitiv tahlil bunday idiomalarni nafaqat leksik birlik, balki ijtimoiy ong va madaniy tajriba mahsuli sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shu orqali ularning shakllanishi, rivojlanish mexanizmlari va baholovchi funksiyalari yanada chuqurroq anglanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. Longman Dictionary of English Idioms.(1979). – Harlow, L.: Longman,– 412 p.
3. Kövecses Z. *Metaphor and Culture*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
4. Maslova V.A. *Kognitivnaya lingvistika*. – Moskva, 2004.
5. Radjabova M. (2021). *Semantic analysis of phraseological units with onomastic components*. Scientific reports of Bukhara State University, Vol.5 Issue2BSU (2)
6. Teliya V.N. *Russkaya frazeologiya v kontekste kultury*. – Moskva, 1996.
7. Tursunov M. (2022). *Analysis of some English idioms containing popular proper names*. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, Vol. 5.